

ХАЙOLDAGI– HAYOT

Abduvahobova Mahliyo Ilhomjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universitetining 3-bosqich talabasi

E-mail: maxliyoabduvaxobova98@gmail.com

Inson xayolda o'zi xohlagan baxtli hayotni yaratishi va bu unga katta ishonch bag'ishlashi mumkin. Zero, umid insonga katta kuch va ishonch bag'ishlaydi.

Kalit so'zlar: Hayot, bolalik, orzu va xayol.

Hayot–ko'pchiligimizning nazarimizda bu yechish qiyin bo'lgan murakkab tushunchadek ko'rinadi. Lekin aslida, uni murakkablashtirib yuborgan biz insonlar emasmikin. Ba'zida, boshimizga tushgan kulfatda hayotni ayblaymiz. Taqdirim shu ekan deymiz. Lekin inson nima qilsa, o'ziga - o'zi qiladi. Ba'zan taqdirimizni o'zimiz yaratib qo'yamiz. Bunda na hayotni ayblab bo'ladi va na taqdirni. Insonlarga har doim tanlash imkoniyati beriladi. Oldimizda doim ikki yo'l turadi. Qay birini tanlash esa o'zimizning qo'limizda.

Yozmoqchi bo'lgan mavzum, sizlarga hayotni tushuntirish emas, maqsadim hayotda adashgan ota-onalarni ozgina bo'lsa ham gaplarim to'g'ri yo'lga qaytishiga turtki bo'lsa, menga shuning o'zi katta yutuq bo'ladi. Ota-onalar uchun farzand javob bermasligi kerak. Ularning hayotda qilgan xatolarini deb farzandlarning hayoti bir umr azob, dard va nafrat bilan o'tmasin. Qalbi kemtik bo'lmasin. Bunday oiladagi farzandlarning ko'pchiligi o'zlari uchun xayollarida hayot quradilar. Mana shu orqali ular o'zlarini quvontiradilar. Ularning ba'zilarida xayolidagi hayot haqiqiy hayotga aylanadi, ba'zilarida bo'lsa, u shunchaki xayolda qoladi.

U paytlari juda yosh edim. Maktabda bora boshlagan paytlarim edi. Men ham xayolimda turli xil hayotni yaratardim. Lekin bu hayotning barchasida bir inson gavidalanardi. U inson kelib maktabda hammaning oldida mendan kechirim so'zardi. Afsusdaligini, u ham azoblanganini aytardi. Men bo'lsam, kechirardim. Keyin biz birga baxtli hayot kechirar edik. Ba'zan, u inson bilan uzoq-uzoq suhbatlar qurar edim. Biz ba'zan quvonardik, ba'zan bo'lsa yig'lardik. Lekin bu yig'lash menda faqat xayoldagina bo'lib qolmas edi. Balkim xayolimdagi hayotdan haqiqiy hayotga aylangan narsa ham shudir. Bu hayot, ya'ni xayoldagi hayot menda juda uzoq vaqt davom etdi. Men maktabda nimalar ko'rganimni, qaysi fandan qanday baho olganimni, nima meni xursand qilgani-yu, nima ranjitganini–barchasini gapirib berardim. U inson bo'lsa menga maslahatlar berardi. Mening hayotim 9-sinfgacha mana shunday xayol bilan o'tdi. Men juda baxtli edim. Chunki xayolda o'zimga baxtli hayotni qurgandim. 9-sinfga o'tganimda esa xayolimdagi hayotni ro'yobga chiqaradigan bir muhim gap

eshitdim. Maktab bitiruv kechasiga u xayolimdagi insonning ham kelishini aytishdi. Juda xursand edim. Yillar, oylar, soatlar o'tkazib kutdim va nihoyat, o'sha kun keldi. Juda hayajonda edim. Chunki shu paytgacha faqatgina xayolimda yurgan inson haqiqiy hayotdagiga aylanardi. Kutdim, uzoq kutdim, lekin... U inson kelmadi. O'sha kuni barcha orzularim, barcha xayollarim chilparchin bo'ldi. Xayoldagi o'zim qurgan baxtli hayotim endi xayolda ham qolmadi. Yosh bolaning boshiga tushgan kulfat bir kunda uni katta odamga aylantirib qo'yadi, deyishadi. Men ham shu kuni ulg'ayganimni his qildim va hech qachon u insonni hatto, xayolda ham o'ylamaslikka, u insonni unutishga qaror qildim. To'g'ri, unutish qo'limdan kelmagandir, lekin men endi u inson bilan bir oila bo'lib yashash haqidagi orzularim-u xayollarimni yig'ishtirdim. Mening xayolimda qurgan birinchi shirin hayotim mana shunday yakun topdi. Bu hayotimning qahramoni otam edi.

XAYOLDAGI-HAYOT 2

O'sha paytlari kollejda o'qib yurar edim. Keyingi hayotimni universitet bilan bog'lash uchun harakatni boshladim. Yana men o'zim uchun xayolda hayotni, yangi hayotni qurdim. Bu hayotda men juda baxtli edim. Dard, azob-bularning barchasini unutgandim. Men uchun yangi davr studentlik davri boshlangandi. Ikkinchi xayolimdagi hayotda men student edim. Universitet -u kursdoshlarimni ham xayolimdagi hayotda ko'rgandim. Lekin afsuski, bu shunchalik oson tuyilgan narsa faqat xayolda edi. Haqiqiy hayotda bo'lsa juda qiyin bo'lishini bilardim. Lekin yiqilishim mumkinligini bilmabman. Imtixon kunini juda orziqib kutibman-u, xayolimdagi hayotda erishgan narsalarim barchasi xayolda ekanligini, barcha orzularim shu ma'lum vaqtda yo'q bo'lib ketishini o'ylamabman. Shunday qilib xayolimda qurgan ikkinchi hayotim ham haqiqiy hayotga aylanmadi. Men imtixonidan o'ta olmadim. Shu bilan men uchun hamma narsa tugadi deb o'ylagandim. Hatto hayotning o'zini ham men uchun qizig'i qolmagandek edi. Bu hayotda umuman hech narsa men uchun emasdek edi, go'yo. Hamma yaxshi davrim faqatgina xayolimda o'zimni ovutish uchun qurgan hayotdagina sodir bo'lardi, xolos. U haqiqiy hayotga o'tmadi. Agar oldimda menga doim ishongan, doim meni quvvatlagan insonlarim bo'lmaganda, bilmadim, nima bo'lardim. O'sha insonlar menga yiqilsam turishim kerakligini, hayotda bunday sinovlar ko'p bo'lishini, ozgina qiyinchilikni ko'rib hayotda sinib qolmaslikni o'rgatdilar. Ular doim men bilan birga bo'ldilar. Yig'lasam, menga qo'shilib yig'ladilar, kulsam, ular ham kuldilar. Ular menga yelkadosh bo'ldilar. Doim yonimda turdilar. Ular tufayli men yana hayotga qayta boshladim, yana xayolimdagi hayotni tiriltirdim. Ulardan men juda ham minnatdorman. Chunki men ular tufayli yashashni o'rgandim. Hayotga qaytdim. Peshonamga yozilgani shu ekan degandim. Lekin ular taqdirni Alloh yaratishini, ba'zida unga biz insonlar sababchi bo'lib qolishimizni o'rgatdilar. Agar hozir taslim bo'lsang, sinsang, qaytib tiklanmaysan va bu narsa sen uchun faqat orzu bo'lib, xayolingdagina qoladi, dedilar.

Bu haqiqat edi. O'sha paytda menda ikkita tanlash imkoniyati bor edi: biri taslim bo'lishim va xayoldagi hayot shunchaki xayolda qolishi, yana biri esa kurashishim va uni haqiqiy hayotga aylantirishim kerak edi. Men buvim va onam ko'magida kurashishni tanladim.

XAYOLDAGI-HAYOT 3

Men hozirda buvim orzu qilgan baxtli hayotga ya'ni, xayolimdagi hayotda qurgan baxtga erishdim. Lekin afsuski, bu baxtni uning asl egasi ko'rolmadi. Bu baxt u insonga nasib qilmadi. Men u insonni yo'qotganimdan so'nggina haqiqiy judolik nima ekanligini tushundim. Bu hayotda asl dardni faqat yaqin insonimizni yo'qotgandagina his qilamiz. Allohim bu dardni hech kimga bermasin. Shu kundan boshlab men uchinchi xayolimdagi hayotni qurdim. Bu hayotda buvim men bilan doim birga. Men u insondan ayrilmadim. Xayolan doim birgamiz. O'zim qurgan xayolimdagi hayotda u inson doim menga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelyapti. Men shu xayolimda bo'lsa ham u inson bilan gaplashmasam, yashay olmasdim. Balkim, oldingi birinchi xayolimdagi inson ham men uchun juda azizdir. U insonsiz ham yashay olmaganim uchun shunday xayolimda u inson bilan gaplashib yurgandirman. Axir, ikkinchi va uchinchi xayolimdagi hayot ham menga juda aziz edi-ku. Buvimdan keyin men shuni tushundimki, biz erisholmagan narsalarimizga xayolda bo'lsa ham erishishga harakat qilarkanmiz. Yashash uchun. Shuning uchun ham insonlar xayollarida o'zlariga kerak bo'lgan hayotni qurishar ekan. Balkim, Allohim shuning uchun ham orzu qilish, xayol surish degan narsalarni yaratgandir. To'g'ri, faqat xayol surish emas, harakat ham qilish kerak, deyishadi. Lekin o'ylab ko'ring, eng yaqin insoningiz vafot etsa, u insonsiz hayotni tasavvur qila olmasangiz nima qila olasiz? Hech narsa, to'g'rimi? Demak, biz faqat xayolangina u inson bilan birga bo'la olamiz.